

j) Har bir tushgan soxta tashvish xabari bo'yicha dalolatnoma tuzadi, lozim bo'lganda «Buyurtmachi»ni chaqirib ob'ektni ochib ko'rikdan o'tkazadi va bu haqida dalolatnoma tuzadi, uning bir nusxasini «Buyurtmachi»ga beradi.

z) Qo'riqlash xizmati uchun olinadigan tariflar o'zgarganida «Buyurtmachi»ni xabardor qiladi.

i) Mazkur shartnomani to'xtatish yoki bir tomonlama bekor qilinishi quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- «Buyurtmachi» 2 oydan oshiq «qo'riqlash» xizmati uchun to'lovlarni to'lamaganligi;

- har qanday texnik nosozliklar, telefon raqami o'zgarganda, telefon o'chirilganda, TQM joyi o'zgarib ko'chirilganda;

- «Buyurtmachi» tomonidan shartnoma 10-bandi shartlari bajarilmaganda;

- ob'ektning texnik mustahkamligi talabga javob bermaganda;

- Telefon o'chirilganda yoki nosoz bo'lgan holda, elektr manbai o'chirilganda, TQM joyi o'zgarganda, ob'ekt qo'riqqa qabul qilinmaydi, zudlik bilan bu to'g'risida «Buyurtmachi»ni yozma yoki telefon orqali xabardor etadi.

V bob. Tomonlarning javobgarligi.

12. Mazkur Shartnomaning 11-bandida ko'rsatilgan summaning **Buyurtmachi** tomonidan o'z vaqtida to'lanmaganligi holatida **Buyurtmachi Ijrochiga** har bir kechiktirilgan kun uchun to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning miqdori Shartnoma bahosining 50 foizidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

13. **Ijrochining** xodimi postda turmaganligi uchun **Ijrochi Buyurtmachiga** bir kunlik qo'riqlash xizmati narxining 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

14. **Ijrochi** mazkur Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi natijasida **Buyurtmachiga** yetkazilgan zarar uchun moddiy javobgar bo'ladi. Zararni qaytarish uchun, tergov yoki sud idoralarining ushbu holatlari yuzasidan chiqarilgan qarorlari asos bo'ladi.

15. Quyidagi holatlarda yetkazilgan moddiy-zararlar uchun «qo'riqlash» javobgar hisoblanmaydi:

a) tabiiy ofatlar oqibatida keltirilgan mulkiy zararlar uchun;

b) o'g'rilik yoki bosqinchilik yo'li bilan amalga oshirilgan harakatlarda pul o'g'irlanishi, qo'riqlanayotgan xonalarda Buyurtmachi qoldirmasligi kerak bo'lgan, belgilangan summadan oshib ketuvchi pul vositalari qoldirilib ketganida, hamda pul vositalari polda o'rnatilgan seyf yoki metall jovonda saqlanmagan hollarda qo'rilangan hollarda;

v) Xo'jalik organini ishchilarining shaxsiy mulki qo'riqlanayotgan xonada qolib ketganida;

g) Jinoyatchi tomonidan qo'riqlanayotgan xona ichida keltirilgan zarar uchun, agarda bunda jinoyatchi ushbu xonaga uni yopilishidan oldin kirgan bo'lsa va xonani qo'riqlanmaydigan vaqtda tark etgan bo'lsa;

d) pul boyliklarni belgilangan joyda saqlanmagan holatlarda ularni O'g'irlash yoki tajovuz sodir bo'lganda,

y) «Buyurtmachi» tomonidan signalizatsiya vositalari belgilangan vaqtda ishga tushirilmaganligi, ob'ektni qo'riqlashga topshirilmaganligi, yoki signalizatsiyaning nosozligi haqida «qo'riqlash»ga xabar berilmaganligi natijasida o'g'irlash, bosqinchilik yoki tajovuz yo'li bilan tovar-moddiy boyliklarga ziyon yetkazilganda, yoki ikki tomonlama tuzilgan dalolatnomada qo'riqlanayotgan ob'ektni texnik mustahkamligini oshirish bo'yicha talablar bajarilmasligi natijasida, tovar-moddiy boyliklarni o'g'irlanishiga sharoit yaratilganda.

VI bob. Nizolarni hal qilish tartibi.

16. Mazkur Shartnomani tuzish, ijro etish, o'zgartirish va bekor qilishda vujudga keladigan nizolar, kelishmovchilik va tortishuvlar ikki tomonlama kelishuvlar yo'li bilan hal etiladi, agarda o'zaro kelishuvlar yo'li bilan ular hal etilmasa, o'rnatilgan tartibda Xududiy Iqtisodiy sudiga beriladi.

VII-bob. Fors-major.

17. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar ushbu bajarmaslik Shartnoma tuzilgandan keyin paydo bo'lgan, yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (fors-major) oqibati hisoblansa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

18. Yengib bo'lmaydigan kuch holatiga havola qiluvchi Tomon boshqa Tomonni bunday holatlar boshlanganligi va tamom bo'lganligi to'g'risida ikki kun ichida yozma shaklda xabardor qilishi shart. Ushbu muddat ichida xabar bermagan Tomon mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilish asosi sifatida ko'rsatishga haqli emas.

19. Fors-major holatlariga suv toshqinlari, yer qimirlashi va boshqa tabiiy halokatlar, shuningdek epidemiyalar, yong'inlar, portlashlar, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mazkur Shartnoma ijrosiga bevosita ta'sir ko'rsatgan qarorlari kiradi.